
161 nafar litsey o'quvchilari o'qishini tamomlashadi

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida 2022/2023 o'quv yilida jami 327 nafar o'quvchi tahsil oldi. Ulardan 166 nafari birinchi bosqichni, 161 nafari esa ikkinchi bosqich o'quvchilari bo'lib, ikkinchi bosqich o'quvchilari hozirda litsey ta'limini tamomlashmoqda.

O'tgan o'quv yilida litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi 86 foizni tashkil etib, ularning 25 foizi xorijiy oliygohlarga o'qishga qabul qilingan. Endilikda o'qishga qabul qilish ko'rsatkichini 95 foizga yetkazish reja qilingan.

